

## YAPONIYA VA JANUBIY KOREYANING MINTAQAVIY XAVFSIZLIK VA IQTISODIY O‘SISHDAGI O‘ZARO HAMKORLIGI

*Nusratullayev Nizomiddin Bahrom o‘g‘li*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi*

**Annotatsiya.** Yaponiya va Janubiy Koreya Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan davlatlardan biri hisoblanadi. Ularning iqtisodiy o‘rish hamda mintaqaviy barqarorlikdagi o‘zaro sherikligi oxirgi yillarda yangi bosqichga qadam qo‘ymoqda. Bir tomondan Yaponiya va Janubiy Koreyaning mintaqaviy strategik hamkorlikni rivojlantirishi, asosan Shimoliy Koreyaning harbiy tajovuzlariga qarshi birgalikda dengiz xavfsizligini taminlash, razvedka almashish hamda harbiy-texnik hamkorlikni kuchaytirish orqali mintaqada xavfsizlikni taminlashda juda muhim hisoblanadi. Boshqa tomondan, iqtisodiy hamkorlik, ikki mamlakat uchun o‘zaro foydali va innovatsion rivojlanish uchun muhim imkoniyatlar yaratib, ikki davlatning yuqori texnologiyali sanoatni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, ularning savdo shartnomalari, ilmiy-texnik almashinuvlar va qo‘shma loyihalari hamda yaqin yillarda boshlangan yashil energiya sohasidagi kelishuvlari iqtisodiy integratsiyani rivojlantirib ular o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlaydi.

**Kalit so‘zlar:** Osiyo-Tinch okeani mintaqasi, Shimoliy Koreya, ASEAN, mintaqaviy xavfsizlik, iqtisodiy integratsiya, yuqori texnologiyali sanoat, yashil energetika.

## JAPAN AND SOUTH KOREA'S COOPERATION IN REGIONAL SECURITY AND ECONOMIC GROWTH

**Annotation.** Japan and South Korea are among the most economically developed countries in the Asia-Pacific region. Their mutual partnership in economic growth and regional stability has recently entered a new stage. On one hand, the development of regional strategic cooperation between Japan and South Korea is crucial for ensuring security in the region, particularly through joint efforts against North Korea’s military provocations, maintaining maritime security, intelligence sharing, and strengthening military-technical cooperation. On the other hand, economic cooperation creates important opportunities for mutual benefit and innovative development, playing a significant role in further advancing the high-tech industries of both countries. In addition, their trade agreements, scientific and technical exchanges, joint projects, and recent agreements in the field of green energy promote economic integration and strengthen bilateral relations.

**Keywords:** Asia-Pacific region, North Korea, ASEAN, regional security,

economic integration, high-tech industry, green energy.

## СОТРУДНИЧЕСТВО ЯПОНИИ И ЮЖНОЙ КОРЕИ В ОБЛАСТИ РЕГИОНАЛЬНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ И ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА

**Аннотация.** Япония и Южная Корея являются одними из наиболее экономически развитых государств Азиатско-Тихоокеанского региона. Их взаимное партнёрство в области экономического роста и региональной стабильности в последние годы вышло на новый уровень. С одной стороны, развитие регионального стратегического сотрудничества между Японией и Южной Кореей имеет ключевое значение для обеспечения безопасности в регионе, особенно через совместные усилия против военных провокаций Северной Кореи, поддержание морской безопасности, обмен разведывательной информацией и укрепление военно-технического сотрудничества. С другой стороны, экономическое сотрудничество создаёт важные возможности для взаимной выгоды и инновационного развития, играя значительную роль в дальнейшем развитии высокотехнологичных отраслей обеих стран. Кроме того, их торговые соглашения, научно-технический обмен, совместные проекты и недавние соглашения в области зелёной энергетики способствуют экономической интеграции и укрепляют двусторонние отношения.

**Ключевые слова:** Азиатско-Тихоокеанский регион, Северная Корея, АСЕАН, региональная безопасность, экономическая интеграция, высокотехнологичная промышленность, зелёная энергетика.

### KIRISH

Tarixdan malumki, Yaponiya va Janubiy Koreya o'rtasidagi munosabatlar yaqin yillargacha ishonchsiz va o'zaro ziddiyatli edi. Buning asosiy sababi esa XX asr boshlaridagi Yaponiyaning mustamlakachilik siyosati edi. Shunga qaramay XXI asrga kelib mintaqadagi muammolar va Shimoliy Koreyaning yadroviy dasturi ikki davlatni bir-biriga yaqinlashishga majbur etdi. Ular o'rtasidagi dastlabki yirik kelishuvlardan biri 2016-yili noyabr oyida rasmiy imzolangan GSOMIA (General Security of Military Information Agreement) bo'lib, uning asosiy bandi Shimoliy Koreyaning yadroviy va raketa dasturlariga qarshi mudofaa va razvedka malumotlarini almashishni nazarda tutgan<sup>1</sup>. Bu shartnoma ikki davlat o'rtasidagi harbiy va razvedkaga oid ma'lumotlarni xavfsiz tarzda almashish imkonini yaratib, ikki tomon uchun real vaqtda ma'lumot almashish orqali mintaqaviy xavfsizlikni saqlashda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shartnomaga muvofiq ikki tomon ham ma'lumotlarni uchinchi tomonga tarqatmaslik hamda faqat xavfsizlik maqsadlaridagina faoydalanish majburiyatini oldilar. Bu

<sup>1</sup> <https://www.dw.com/en/japan-south-korea-agree-to-controversial-intelligence-deal/a-36384028>

shartnoma AQSh, Yaponiya va Janubiy Koreya o'rtasidagi uch tomonlama shartnoma bo'lib, ular o'rtasidagi harbiy hamkorlikni rivojlantirishning asosiy poydevoriga aylandi.

Haifa universiteti professori Guy Podoler esa o'z izlanishida aytib o'tadiki, "GSOMIA ikki davlat o'rtasidagi birinchi harbiy shartnoma bo'lib, shartnoma Shimoliy Koreya va uning yadroviy va raketa dasturlariga oid harbiy ma'lumotlarni almashishni talab qiladi<sup>2</sup>".

Keyingi muhim kelishuvlardan biri bu ASEAN doirasida qabul qilindi. Bu kelishuv 2023-yil iyul oyida Jakartada, Janubiy Koreya tashqi ishlar vaziri Park Jin ASEANGa a'zo davlatlarning tashqi ishlar vazirlari bilan uchrashuvda taklif etgan "KASI" tashabbusidir. Uchrashuv davomida Park, "Xitoy va Yaponiyani ham o'z ichiga olgan Seul, Tokio va Pekin o'rtasidagi hamkorlikni jonlantirish muhimligini ta'kidladi<sup>3</sup>". "KASI" bu - Janubiy Koreya hukumatining ASEAN mintaqasi uchun mo'ljallagan diplomatik tashabbusi bo'lib, mintaqaviy tinchlik va barqarorlikni taminlash hamda uch tomonlama hamkorlikni rivojlantirishda muhim hisoblanadi. Uchrashuv davomida Park Yaponiya tashqi ishlar vaziri Hayashi Yoshimasa bilan uchrashdi va natijada ikki davlat tashqi ishlar vazirlari ikki davlat o'rtasida yaqin aloqalar o'rnatish orqali o'zaro diplomatik aloqalarni to'liq tiklanishini olqishladilar. Shuningdek hukumatlararo maslahatlashuvlar, korporativ va xususiy almashinuvlar ko'payganini mamnuniyat bilan qayd etdilar. Bu tashabbus Tokio va Seul uchun mintaqaviy xavfsizlikni taminlash, harbiy hamkorlikni kuchaytirish va texnologik hamkorlikni rivojlantirish uchun ham muhim sanaladi.

Navbatdagi muhim kelishuvlardan biri bu 2024-yilning 1-iyunida Janubiy Koreya mudofaa vaziri Shin Von-Sik va Yaponiya mudofaa vaziri Kixara Minoru Singapurdagi Shangri-La dialogi chegaralari bo'yicha 2018-yildan buyon muzlab qolgan ikki tomonlama mudofaa aloqalarini normallashtirish bo'yicha kelishuvga erishdilar<sup>4</sup>. 2018-yil dekabr oyida Yaponiya dengiz kuchlari (MSDF) va Koreya Respublikasi dengiz floti (ROKN) o'rtasidagi voqeadan keyin Yaponiya va Janubiy Koreya o'rtasida keskinlik avj oldi. Yaponiya Janubiy Koreya harbiy-dengiz kuchlarining esminetsi o'zining yong'inni nazorat qilish radarini Sharqiy dengizdagi Koreya yaqinida kuzatuv operatsiyasini o'tkazayotgan MSDF patrul samolyotiga yo'naltirganini da'vo qildi. Janubiy Koreya Mudofaa vazirligi Yaponiyaning davosini rad etib, u o't o'chirish radarini ishlatmagan, aksincha, o'sha paytda avariya uchragan Shimoliy Koreya baliqchi qayig'ini kuzatayotganini aytdi. Voqealar jiddiylashib, ikki davlat munosabatlari keskinlashdi. O'tgan yildan buyon Yaponiya va Koreya Respublikasi munosabatlaridagi umumiy taraqqiyotga va o'tgan yilning avgust oyida Kemp-Deviddagi ajoyib uch tomonlama sammitga qaramay, bu muammo hal

<sup>2</sup> <https://www.researchgate.net/publication/388147917>

<sup>3</sup> <https://m.koreaherald.com/article/3167518>

<sup>4</sup> <https://www.csis.org/analysis/south-korea-and-japan-cement-bilateral-security-ties>

etilmagan va ikki tomonlama mudofaa aloqalari - Singapurdagi uchrashuv gacha muzlatilgandi<sup>5</sup>. Va nihoyat bir necha oy davom etgan muzokaralar mavzusi bo'lgan kelishuv, ikki tomonlama aloqalardagi yangi davrni belgilab berdi. Unda ikki hukumat mudofaa almashinuvlarini, jumladan vazir o'rinbosarlari darajasidagi muntazam muloqotni va SDF va Koreya harbiylari o'rtasidagi yuqori darajadagi aloqalarni davom ettirishga kelishib oldi. Hozirgi beqaror dunyoda Yaponiya o'z xavfsizligi va mintaqaviy barqarorlikni saqlash hamda mudofaa qobiliyatini mustahkamlash uchun bir nechta asosiy jihatlarni belgiladi. Bular quyidagilardan iborat;

- 1.Integratsiyalashgan havo va raketalar qarshi mudofaa;
- 2.Qarshi turish mudofaasi;
- 3.Qo'mondonlik, boshqaruv va razvedkaga oid funksiyalar;
- 4.Uchuvchisiz mudofaa;
- 5.Mobil joylashtirish;
- 6.Barqarorlik va chidamlilik.

2022-yil dekabrda Tokio hukumati tomonidan qabul qilingan "Yangi milliy xavfsizlik strategiyasi orqali yuqoridagi maqsadlar hamda yuzlab "Tomahawk" raketalarini sotib olish uchun 51.4 milliard dollar miqdoridagi rekord darajada mudofaa byudjeti belgilandi<sup>6</sup>.

Tokioning mudofaa uchun xarajatlarni ikki barobar oshirishi va yuzlab esminestlar uchun raketalar sotib olmoqchiligi, mintaqaviy xavfsizlikni qay darajadagi dolzarb mavzuga aylanganligini ko'rsatadi. Yangi strategiyalar asosida mudofaa salohiyatini yaxshilashga urinishi, Yaponiyaning mintaqaviy xavfsizlikda faolroq bo'lishga intilishidan dalolat beradi. Bundan tashqari yuqoridagi islohotlar nafaqat Yaponiyaning o'z xavfsizligi, shuningdek ittifoqchilari bilan aloqalarni mustahkamlashda ham muhim sanaladi.

Yaponiya va Janubiy Koreyaning o'zaro iqtisodiy integratsiyasi. Ikkinchi jahon urushidagi mag'lubiyat Yaponiya uchun juda qimmatga tushdi. Uning sanoati va infratuzilmasi jiddiy zarar ko'rdi. Sanoatda ishlab chiqarish esa, 1945-yilda urushdan oldingi darajaning 10–15 foizigacha pasaydi. Ishsizlik, inflatsiya va oziq-ovqat tanqisligi kuchaydi. Ammo keying yillarda AQSh hamda MITI (Sanoat va savdo vazirligi) tomonidan rejalashtirilgan siyosat bilan metallurgiya, avtomobilsozlik, kemasozlik va elektronika sohasida iqtisodiy rivojlanish boshlandi. Natijada Yaponiya 1980-yillarga kelib dunyoning ikkinchi yirik iqtisodiyotiga aylandi.

Urushdan keyin Yaponiyadan mustaqillikka erishgan Koreyadagi holat esa biroz boshqacharoq bo'ldi. AQSh va Sovet Ittifoqi tomonidan vaqtinchlik belgilangan 38-parallel chizig'i natijasida orol shimol va janubga bo'linib ketdi. Keyinchalik esa ular ikkita mustaqil davlatga aylandi. Ikkinchi jahon urushi esa mamlakat iqtisodiga katta

<sup>5</sup> <https://www.csis.org/analysis/south-korea-and-japan-cement-bilateral-security-ties>

<sup>6</sup> <https://cc.pacforum.org/2023/01/japan-and-south-korea-as-like-minded-partners-in-the-indo-pacific/>

zarar yetkazdi. Shimoliy Koreya bilan urush esa shundog'am tang ahvolda bo'lgan iqtisodiyotni izdan chiqardi. Sanoat, qishloq xo'jaligi butkul izdan chiqdi. Lekin kemasozlik, sanoat, avtomobilsozlik va texnologik ishlab chiqarishdagi yutuqlar hamda AQShning yordami natijasida mamlakat 1980-yillarga kelib "Yangi industrial davlatlar" qatoridan joy oldi. Tokio va Seul o'rtasidagi uzoq muzokarlardan so'ng 1965-yil iyunda "Ikki davlat uchun asosiy munosabatlar" to'g'risidagi bitim imzolandi. Shartnomaga muvofiq Yaponiya va Koreya o'rtasida mulk va da'volar bilan bog'liq muammolarni hal qilish va iqtisodiy hamkorlik bo'yicha kelishuvlar ham imzolandi. Yaponiya Janubiy Koreyaga iqtisodiy yordam sifatida 300 million dollar grant va 200 million dollar kredit bilan birga xususiy ishonch uchun 300 million dollar, jami 800 million dollarni "iqtisodiy hamkorlik" sifatida taqdim etdi<sup>7</sup>. Ajratilgan grantlar va kredit mablag'larining katta qismi iqtisodiy rivojlanish, sanoat va ijtimoiy infratuzilmalarni barpo etishga, yapon kompaniyalarining texnologiya transferi hisobiga Gyonbu ekspress yo'lini va Soyang to'g'onini qurishga sarflandi. Bu shartnoma urushdan keyingi davrda ikki davlatning iqtisodiy hamkorligi uchun dastlabki qadamlardan biri edi.

So'nggi yillarda Yaponiya Janubiy Koreyada fabrika va zavod qurishda, texnologik yangiliklar hamda investitsiya kiritish orqali sanoatni industriyalashtirishda asosiy hamkorga aylandi. Koreya hukumati esa bu yordamlardan sanoatlashtirish va eksportni rivojlantirishda foydalanib, yapon tajribasi va texnologiyasini o'zlashtirdi. Natijada esa po'lat, avtomobilsozlik, kemasozlik, elektronika kabi sohalar tez rivojlandi. Yirik po'lat ishlab chiqaruvchi "POSCO" zavodi ham Yaponiya yordami bilan qo'shma hamkorlikda ishga tushirildi. 1970-yillardan boshlab Yaponiya Janubiy Koreyaning asosiy savdo-sanoat hamkori va xorijiy investoriga aylandi. Yapon texnologiyasi va Koreyaning arzon ishchi kuchi birlashishi natijasida, asosan eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish rivojlantirildi. 1980-yillarga kelib ikki davlatning savdo aylanmasi keskin oshib, Yaponiya Koreya sanoati uchun uskunalar, mashinalar va komponentlar yetkazib beruvchi asosiy hamkorga aylandi.

O'zaro hamkorlikni rivojlantirish uchun Koreya Respublikasi Prezidenti Kim Dae Jung va Kim xonim 1998-yil 7-oktabrdan 1998-yil 10-oktabrgacha davlat mehmoni sifatida Yaponiyada rasmiy tashrif bilan bo'ldilar. Prezident Kim Dae Jung Yaponiyada bo'lgan vaqtda Yaponiya Bosh vaziri Keyzo Obuchi bilan uchrashdi. Ikki davlat rahbarlari Yaponiya va Koreya Respublikasi o'rtasidagi o'tmishdagi munosabatlarni har tomonlama ko'rib chiqdilar, hamda bugungi do'stona va hamkorlikka asoslangan ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar kelajakda qanday bo'lishi kerakligi haqida fikr almashdilar<sup>8</sup>. Bu tashrif 1998-yil 8-oktabrda (Japan–Republic of Korea Joint Declaration: A New Japan–Republic of Korea Partnership towards the

<sup>7</sup> [https://military.history.fandom.com/wiki/Treaty\\_on\\_Basic\\_Relations\\_between\\_Japan\\_and\\_the\\_Republic\\_of\\_Korea](https://military.history.fandom.com/wiki/Treaty_on_Basic_Relations_between_Japan_and_the_Republic_of_Korea)

<sup>8</sup> <https://www.mofa.go.jp/region/asia-paci/korea/joint9810.html>

Twenty-first Century) deklaratsiyasi imzolanganligi bilan tarixda qoldi. Uchrashuv davomida ikki davlat rahbarlari ziddiyatli tarix tufayli, sust davom etib kelgan Yaponiya va Koreya Respublikasi o'rtasidagi munosabatlar, 1965-yilda normallashtirishdan so'ng yaqin, do'stona hamkorlik aloqalarni rivojlantirib borgan va bunday hamkorlik ikki davlatning sanoat, harbiy va savdo-iqtisodiy sohadagi rivojiga xizmat qilganini e'tirof etishdi. Bosh vazir Obuchi koreys xalqining tinimsiz sa'y-harakatlari bilan rivojlanish va demokratlashuvga erishib, rivojlangan davlatga aylangan Koreya Respublikasiga qoyil qolishini bildirdi. Prezident Kim esa Yaponiyaning xavfsizlik siyosati, birinchi navbatda, faqat mudofaaga yo'naltirilgan siyosati va urushdan keyingi Yaponiya "Tinchlik Konstitutsiyasiga" muvofiq yadro bo'lmagan tamoyillari, jahon iqtisodiyotiga qo'shgan hissasi va rivojlanayotgan mamlakatlarga iqtisodiy yordami va boshqa vositalar orqali xalqaro hamjamiyatning tinchligi va farovonligi uchun tutgan rolini yuqori baholadi. Har ikki davlat rahbarlari Yaponiya va Koreya Respublikasi erkinlik, demokratiya va bozor iqtisodiyoti kabi umuminsoniy tamoyillarga asoslanib, hamkorlikni yanada rivojlantirishga kelishib olishdi.

Ikki davlat uchun yana bir muhim iqtisodiy-savdo bitimlaridan biri bu, 2020-yil imzolangan va 2022-yilda kuchga kirgan RCEP (Regional Comprehensive Economic Partnership) hisoblanadi. Bunga Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Indoneziya, Malayziya va Avstraliya kabi o'ndan ortiq davlatlar a'zo bo'lgan<sup>9</sup>. RCEPning Yaponiya uchun ahamiyati 1990-yillarning boshlarida yapon sanoati va biznesining manfaatlarini himoya qilish, uning afzalliklarini oshirish, bundan tashqari mintaqadagi siyosiy ta'sirini saqlab qolish uchun Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi strategiyalaridan biri hisoblanadi. RCEPning imzolinishi Seul uchun ham juda foydali bo'ldi. Chunki hozirgi paytda Koreya eksportining 70 foizi RCEP davlatlariga yo'naltirilgan. RCEP Koreya va Yaponiya o'rtasidagi birinchi erkin savdo shartnomasi hisoblanib, o'zaro raqobatni pasaytirish hamda strategik hamkorlikni kuchaytirish uchun muhim ro'l o'ynadi. Aynan shu kelishuv natijasida avtomobil qismlari, mashina uskunalari, elektronika va kimyo mahsulotlari bo'yicha ikki davlat o'rtasidagi tariflar sezilarli darajada qisqartirildi. Natijada ikki tomonlama sarmoya kiritish va integratsiya yanayam jadallashdi. Toyota, Sony, Panasonic va boshqa korporatsiyalar uchun esa ASEAN mamlakatlari bozorlariga kirish uchun qulay imkoniyat paydo bo'ldi. Yana bir muhim jihati bu RCEP Yaponiyaning mintaqadagi iqtisodiy va siyosiy ta'sirini mustahkamlab, uni AQShga bog'liq bo'lmagan yangi bir blokda faolroq ro'l o'ynashini ta'minladi.

Yashil energiya sohasidagi hamkorliklar. So'ngi yillarda Janubiy Koreya va Yaponiya o'z tarmoqlarini ko'klamzorlashtirish uchun imkon qadar ko'proq qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishga harakat qilayotganligiga

<sup>9</sup> <https://www.eria.org/research/japan-and-the-regional-comprehensive-economic-partnership-rcep>

qaramasdan, ikkala davlat ham o'zlarining muhim sanoat tarmoqlarini dekarbonizatsiya qilish uchun katta miqdorda yashil ammiakni yoki yashil vodorodni import qilishga majbur bo'lishmoqda.

GHO (Green Hydrogen Organisation) olib borgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, agar Yaponiya va Janubiy Koreya kabi vodorod importiga qaram bo'lgan davlatlar yuqori oqimdagi metan chiqindilarini aniq o'lchovini hisoblamasa, vodorod iste'moli xavfini to'liq nazorat qilib bo'lmaydi. Haqiqiy emissiyaning 43-67 foiz ko'k vodorod bilan bog'liq (bu holda Avstraliyadan ko'k vodorodni eksport qilish misolidan foydalaniladi). Janubiy Koreyada esa bu muammo bizning iqlimimiz uchun yechimlar (SOFC) kabi nodavlat tashkilotlarni ko'k vodorodni mamlakat konstitutsiyaviy sudida "toza" deb hisoblash mumkin degan fikrga qarshi chiqishga undadi va mamlakat iqlim maqsadlari fuqarolarni himoya qilish uchun yetarli emas degan qarorga keldi<sup>10</sup>. Yuqoridagi muammolarni hal qilish uchun har ikki davlat ham toza energiyaga katta sarmoya kiritdi. Umumiy energiya investitsiyalarining 92 foizi esa toza energiyaga yo'naltirildi va bu ko'rsatgich dunyo bo'yicha o'rtacha 66 foiz. So'nggi o'n yil ichida kam emissiyali elektr energiyasiga investitsiyalar 10 foizga o'sib, 38 milliard dollardan 42 milliard dollarga yetdi<sup>11</sup>. Natijada Yaponiya va Janubiy Koreya yashil energiya manbalariga katta investitsiya kiritish orqali tashqi importga bog'liqlik xavfini kamaytirmoqda. Bundan tashqari yangi texnologiyalar (vodorod, ammiak) asosida yashil energiya infratuzilmasini rivojlantirmoqda. Shuningdek mintaqaviy energetika hamkorligini mustahkamlab, Osiyoda toza energiya bozorini shakllantirishda yetakchi o'rinni egallamoqda. Bu jarayonlar ikki davlatning yashil iqtisodiyot sari o'tishda, shuningdek, global yashil energiya bozorini shakllantirishda muhim o'yinchiga aylanishini ta'minlamoqda.

### XULOSA

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda shuni aytish mumkinki Yaponiya va Janubiy Koreya o'rtasidagi aloqalar tarixan ziddiyatli bo'lgan bo'lsa-da, XXI asrga kelib mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy integratsiya ularni yaqin hamkorlik sari yetakladi. Shimoliy Koreyaning raketa va yadroviy tahdidlari, Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi geosiyosiy o'zgarishlar hamda global iqtisodiy raqobat sharoitida Tokio va Seul o'zaro aloqalarni mustahkamlashga va strategik sheriklikni kengaytirishga kirishdi.

Mudofaa sohasidagi ikki davlatning hamkorligi esa avvalo, "GSOMIA" kabi razvedka ma'lumotlarini almashish, erta ogohlantirish va harbiy aloqalarni tiklash kabilarni o'z ichiga oluvchi kelishuv va deklaratsiyalar orqali mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda muhim ro'l o'ynamoqda. Shuningdek, ASEAN doirasidagi "KASI" tashabbusi ham ikki davlatning mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni saqlashdagi faol

<sup>10</sup> <https://gh2.org/blog/solving-japan-and-south-koreas-renewable-energy-conundrum-green-hydrogen>

<sup>11</sup> <https://www.iea.org/reports/world-energy-investment-2025/japan-and-korea>

ishtirokini ko'rsatdi.

Iqtisodiy sohadagi hamkorlik esa, 1965-yildan boshlangan hamkorlik 1998-yilgi Obuchi–Kim deklaratsiyasi hamda 2020-yilgi RCEP bitimi orqali yangi bosqichga ko'tarildi. Yaponiya texnologiyasi va Koreyaning sanoat salohiyati birlashib, ikki tomonlama savdo, va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishning tez sur'atlarda rivojlanishiga olib keldi. Yaponiyaning Koreyaga kiritgan ko'plab investitsiyalari esa ikki davlatning iqtisodiy rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

Yashil energiya yo'nalishida ham Yaponiya va Janubiy Koreya toza energiya infratuzilmasini shakllantirish, kengaytirish hamda vodorod va ammiak asosidagi texnologiyalarni rivojlantirish orqali, dekarbonizatsiya siyosatini faol amalga oshirmoqda. Natijada ular energiya importini kamaytirib, o'zlari uchun toza energiya xavfsizligini taminlashmoqda. Bu esa ularni nafaqat mintaqaviy balki global miqyosda ham "yashil iqtisodiyot" sohasidagi yetakchi davlatlarga aylantirmoqda.

Yaponiya va Janubiy Koreyaning o'zaro hamkorligini mintaqaviy xavfsizlik, iqtisodiy integratsiya va ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha, strategik hamjihatlikning haqiqiy namunasi deyishimiz mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar va ijtimoiy tarmoq sahifalari:**

- <https://www.dw.com/en/japan-south-korea-agree-to-controversial-intelligence-deal/a-36384028>
- <https://www.researchgate.net/publication/388147917>
- <https://m.koreaherald.com/article/3167518>
- <https://www.csis.org/analysis/south-korea-and-japan-cement-bilateral-security-ties>
- <https://www.mofa.go.jp/region/asia-paci/korea/joint9810.html>
- <https://www.eria.org/research/japan-and-the-regional-comprehensive-economic-partnership-rcep>
- <https://gh2.org/blog/solving-japan-and-south-koreas-renewable-energy-conundrum-green-hydrogen>
- Japanese Development Cooperation: The Making of an Aid Architecture Pivoting ... - Google Books
- <https://books.google.co.uz/books?>
- Japan's Security Renaissance: New Policies and Politics for the Twenty-First ... - Andrew L. Oros - Google Books
- <https://books.google.co.uz/books>
- Global Trends 2025: A Transformed World - National Intelligence Council - Google Books
- <https://books.google.co.uz/books>
- Asia-Pacific Regional Security Assessment 2021: Key Developments and Trends - Google Books

<https://books.google.co.uz/books>

Japan's International Relations: Politics, Economics, and Security - Glenn D. Hook - Google Books

<https://books.google.co.uz/books?id=vktv>

Security Cooperation in Northeast Asia: Architecture and Beyond - Google Books

<https://books.google.co.uz/books>

Regionalism and Regional Security in South Asia: The Role of SAARC - Zahid Shahab Ahmed - Google Books

<https://books.google.co.uz/books>